

IJTIMOYIY TARMOQLARNING INSONLAR O'RTASIDAGI MULOQOTGA TA'SIRI: LISONIY VA PSIXOLOGIK TAHLIL

Abdurahmonov Mansurbek Abduvaxob o'g'li

Ilmiy rahbar: Jumayeva Umida Abdurahim qizi

Annotatsiya. Ushbu ilmiy ish ijtimoiy tarmoqlarning zamonaviy muloqot tizimiga ko'rsatayotgan lisoniy va psixologik ta'sirlari, tilning o'zgarishi va shaxslararo munosabatlardagi transformatsiyalar tadqiq etiladi. Tadqiqotda ilmiy qarashlar asosida virtual muloqotning ijobiy va salbiy jihatlari tahlil qilinadi hamda muloqot madaniyatini takomillashtirish bo'yicha taklif va xulosalar keltiriladi.

Kalit so'zlar: virtual muloqot, tejamkorlik qonuniyati, visual semantika, piktogramma, haqiqiylik, kognitiv tilshunoslik.

Abstract. This research paper examines the linguistic and psychological impacts of social networks on the modern communication system, language evolution, and transformations in interpersonal relationships. Based on scientific perspectives, the study analyzes the positive and negative aspects of virtual communication and provides suggestions and conclusions for improving communication culture.

Keywords: virtual communication, law of economy, visual semantics, pictogram, authenticity, cognitive linguistics.

Аннотация. В данной научной работе исследуется лингвистическое и психологическое влияние социальных сетей на современную систему коммуникации, изменения в языке и трансформации в межличностных отношениях. На основе научных взглядов анализируются положительные и отрицательные стороны виртуального общения, а также приводятся предложения и выводы по совершенствованию культуры общения.

Ключевые слова: виртуальное общение, закон экономики, визуальная семантика, пиктограмма, подлинность, когнитивная лингвистика.

Kirish. XXI asr — zamonaviy axborot texnologiyalari asri insoniyatning o'rtasidagi muloqot uslubini butunlay o'zgartirib yubordi. Ijtimoiy tarmoqlar (Telegram, Instagram, WhatsApp, Facebook) nafaqat axborot almashish vositasi, balki yangi lisoniy muhitga aylandi. Muloqotning "yuzma-yuz" shaklidan "virtual muloqot" shakliga o'tishi so'z kuchi, til strukturasi va inson psixologiyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Asosiy qism. 1. Tilning tejamkorlik qonuniyati va virtual nutq. Ijtimoiy tarmoqlarda muloqot tezligining muhimligi tilning tejamkorlik qonuniyatini yuzaga chiqardi. Foydalanuvchilar vaqtni tejash maqsadida so'zlarni qisqartirib yozishga, sintaktik butunlikni buzishga va shu bilan birga so'zlarning boshqa tilda mavjud bo'lgan muqobil, qisqa variantini ishlatishga moyil bo'ladilar. Taniqli tilshunos Devid Kristal o'zining "Language and the Internet" asarida shunday yozadi: "Internet tilni buzayotgani yo'q, aksincha, uni boyitmoqda. Biz internet tili deb ataydigan yangi uslubning guvohi bo'lyapmiz. Bu yozma nutq bo'lsa-da, o'zining dinamikligi bilan og'zaki nutqqa yaqin turadi". O'zbek segmentida bu holat "lekin" o'rniga "lkn", "tushunarli" o'rniga "chunarli", "siz" o'rniga "sz", "nima ekan" o'rniga "nmekin" kabi qisqartmalarda, "yaxshi" o'rniga "ok", "assalomu alaykum" o'rniga "hello, hi", "ho'p bo'ladi" o'rniga "tamom" kabi so'zlar almashinuvida ko'rinadi. Bu tilning grammatik normalariga salbiy ta'sir ko'rsatsa-da, muloqot pragmatikasini tezlashtiradi.

2. Vizual semantika: emodji va stikerlarning o'rni

Ijtimoiy tarmoqlarda hissiyotlarni ifodalash uchun matndan ko'ra piktogrammalardan (emodji) foydalanish ustunlik qilmoqda. Bu an'anaviy muloqotdagi imo-ishora vositalarning virtual ko'rinishidir. Sotsiolog Manuel Kastels o'zining "The Rise of the Network Society" asarida ta'kidlaganidek: "Raqamli muloqot madaniyati — bu haqiqiy virtuallik madaniyatidir. Unda belgilar va timsollar nafaqat xabarni uzatadi, balki yangi ijtimoiy voqelikni shakllantiradi". Emodzilar matndagi ma'noni aniqlashtiradi, boyitadi va siz bilan muloqot qilayotgan insonning holatini, uning hislarini ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, gap so'ngidagi bitta nuqta yoki kulgich xabarning umumiy ohangini - do'stona yoki rasmiy ekanini belgilab beradi.

3. Psixologik ta'sir: "birga, lekin yolg'iz" fenomeni. Ijtimoiy tarmoqlar muloqotni ko'paytirgan bo'lsa-da, uning sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Insonlar yuzmayuz muloqotda yuzaga keladigan emotsional, hissiyotli mas'uliyatdan qochib, virtual muloqotni afzal ko'rmoqdalar. MIT (Massachusetts Texnologiya Instituti) professori Sherri Terkl o'zining ko'p yillik tadqiqotlari natijasida shunday xulosaga keladi: "Biz texnologiyadan ko'p narsani kutaymiz, bir-birimizdan esa kamroq. Biz birga, lekin yolg'izmiz. Ijtimoiy tarmoqlar bizga muloqot illyuziyasini beradi, lekin haqiqiy yaqinlikni o'rini bosa olmaydi". Bu fikrdan shuni anglash mumkinki, ijtimoiy tarmoqdagi ko'p sonli do'stlar, yozishmalar va layklar insonning ijtimoiy ehtiyojini qondiri mumkin, lekin bu chuqur psixologik suhbatlarning o'rini bosa olmaydi. Chunki yuzma-yuz kechadigan suhbatlarda qarshingizdagi inson so'zi orqali sizga o'z fikrini, so'z ohangi orqali ichki hissini, bu his orqali esa ichki kechinmalarini uzatadi, ochiqlaydi.

4. Yosh tadqiqotchilar uchun yangi yo'nalishlar. Bugungi kunda "Ekotilshunoslik" va "Kognitiv tilshunoslik" fanlararo integratsiyasi doirasida ijtimoiy tarmoqlarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekistonlik olimlar, jumladan, D. Ashurova kognitiv tahlil borasida shunday deydi: "Matn – bu faqat so'zlar yig'indisi emas, balki muallifning dunyoqarashi va kognitiv modelining in'ikosidir". Ijtimoiy tarmoq xabarlarini bugungi yoshlarning kognitiv fikrlash doirasi qisqarayotganidan yoki aksincha, vizual axborotni qabul qilish qobiliyati o'sayotganidan dalolat beradi.

Xulosa. Ijtimoiy tarmoqlar insonlar o'rtasidagi masofani yaqinlashtirgan bo'lsa-da, muloqot madaniyatida bir qator muammolarni keltirib chiqardi:

- Lisoniy savodsizlikning ortishi: Grammatik qoidalarga e'tiborsizlik.
- Hissiy sayozlik: Samimiy his-tuyg'ularning "smayliklar" bilan almashtirilishi.
- Vaqt defitsiti: Muloqotning mazmunidan ko'ra soniga e'tibor qaratilishi.

Biroq, ijtimoiy tarmoqlar fanlararo integratsiya (til, psixologiya va IT) uchun ulkan manba hisoblanadi. Kelajakda sun'iy intellekt va inson muloqoti o'rtasidagi chegara yanada qisqarishi kutilmoqda, bu esa tilshunos va sotsiologlar oldiga yangi vazifalarni qo'yadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ashurova D. X. (2012). Matn tilshunosligi. Toshkent.
2. Castells M. (2000). The information age: Economy, society and culture. Blackwell Publishers.
3. Crystal D. (2006). Language and the Internet. Cambridge University Press.
4. Safarov Sh. (2008). Pragmalingvistika. Toshkent.
5. Turkle S. (2011). Alone together: Why we expect more from technology and less from each other. Basic Books.